

MAKTABDA ZAMONAVIY TA'LIM MUHITINI YARATISH

Boybalayev Mirzooxun Abdumanonovich

Farg'ona viloyati So'x tumani 18-maktab direktori

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish; o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari va innovasion loyihalarni joriy etish kabi masalalar ko'rib chiqiladi

KALIT SO'ZLAR: Ta'lim sifati, reproduktiv modeli, kadrlarni qo'llab-quvvatlash tizimi, moddiy-texnika bazasi, o'quv-laboratoriya asbob-uskunalar

KIRISH

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'lim sifati bo'yicha o'tkazilayotgan tadqiqotlarning umumiy muammolariga ta'lim muhiti kabi hodisani sinchkovlik bilan o'rganish masalasi birinchi o'ringa chiqdi. Olimlar tomonidan ta'lim muhitining o'rganish jarayonida sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa ham, uning ta'riflari hanuzgacha xilma-xil bo'lib, ko'plab ilmiy tushunchalarni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda ko'pchilik xorijiy tadqiqotlar “ta'lim sifati” va “maktab samaradorligi” iboralarini tushunish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy tushunchalar doirasida “maktabning ta'lim muhiti”ni tahlil qilmoqdalar. Ta'lim muhitining tuzilishi maktab ta'limining shartsharoitlari va resurslarini tahlil qiluvchi jismoniy, psixologik, hissiy, ijtimoiy-madaniy kategoriyalar orqali ochib berilmoqda.

ASOSIY QISM

Hammanizga ma'lumki, ta'lim sohasi shunday sohaki, u doimiy yangilanish, doimo takomillashtirilib borilishini ta'lab etadi. Shuning uchun ham har bir davrda takomillashtirishning o'z talablari bo'ladi. XX asrda deyarli butun o'quv natijalarini o'rganish reproduktiv modeli hukmronligi ostida rejalashtiriladi, bu hodisani diqqat bilan o'rganish o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan bo'lsa va shunga ko'ra bitiruvchilarni tayyorlash sifati amalda faqat uning bilimiga va uni yetkaza olish qobiliyatiga bog'liq bo'lsa, bugungi kunda u qobiliyatiga qo'shimcha ravishda kompetentli yondashuvni, ta'lim mustaqilligini, hamkorlik va raqobat ko'nikmalarini, virtual muhitda ishlashni, tadqiqot va loyihalash qobiliyatini rivojlantirish talab etilmoqda. Aytish mumkinki, zamonaviy ta'limda o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish taqsimlanadi va asosiy rol' o'quvchilar muhiti yaratiladigan tamoyillarga asoslanadi. Keng ma'noda, atrof-muhit - bu inson muhitining barcha tarkibiy qismlari, ularning xususiyatlari va ular orasidagi bog'lanishlaridir. Shuning uchun, atrof-muhit haqida gapirganda, biz binolarning arxitekturasi va raqamli texnologiyalar, zamonaviy

jihozlar, navigasiya va o‘qitish metodlari, o‘qituvchilar, o‘quvchilar va tengdoshlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tabiati, tuman va shahar, mamlakat va dunyoning ijtimoiy-madaniy resurslarning ta’lim jarayonida qo‘llanadigan darajasini nazarda tutamiz. Oxirgi 3 yilda O‘zbekistonda ham maktabda zamonaviy ta’lim muxitini yaratish sohasida islohotlarning keskin va shiddat bilan olib borilishi, har bir jihatning tanqidiy tahlil qilinishi, muammolar aniqlanishi, ularning yechimini topish, strategik maqsadlarga erishish, yangi marralarni zabt etish, rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olish kabi ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan global, xalqaro ahamiyatga ega hujjatlarning qabul qilinishi, pedagog kadrlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish hamda sohadagi o‘rta va uzoq muddatga mo‘ljallangan keng qamrovli islohotlarni izchil davom ettirish borasida qator ijobiy ishlar amalga oshirilib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tasdiqlangan (PF-5712, 29.04.2019y.) “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish” konsepsiyasida zamonaviy ta’lim muxitini yaratish yo‘llari, ta’lim sifatini oshirishga yo‘naltirilgan 48ta maqsadli ko‘rsatkichlar aniq ko‘rsatib berilgan. Unda: O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish; uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish; o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari va innovasion loyihalarni joriy etish; xalq ta’limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va byudjetdan mablag‘ bilan ta’minlashning samaradorligini oshirish; yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta’minlashda maktabdan tashqari ta’limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish; davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta’lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish; yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga qamrab olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish; xalq ta’limi tizimida faoliyat ko‘rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish kabilar inobatga olingan. Ko‘pgina mutaxassislarining fikriga ko‘ra, puxta qurilgan va uslubiy o‘ylangan ta’lim muhiti nafaqat foydalanish va samaradorlikni ta’minlash, balki ta’lim xarajatlarini kamaytirish va o‘quvchilar xavfsizligini ta’minlashga imkon beradi. Innovasion maktablarning samarali loyihalash va o‘quv muassasalarining eski binolarini rekonstruksiya qilish butun dunyo tendensiyasiga aylanib bormoqda. Chunki, maktab binosi ham ta’lim va ijtimoiy faoliyatning sifatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shuni inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

“Zamonaviy maktab” Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori qabul qilindi. Qarorda: maktabning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va nufuzini oshirish, sifatli ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish sharoitini respublika miqyosida teng joriy etish; joylashgan joyidan qat‘iy nazar, qishloq va shahar maktablarining moddiy bazasi hamda ta‘minlanish darajasidagi tafovutlarni bosqichma-bochqich kamaytirib borish asosida o‘quvchilarning ta‘lim olishlari uchun teng shart-sharoitlar yaratish; umumta‘lim muassasalarining eng yuqori zamonaviy talablarga mos keladigan o‘quv-moddiy bazasi bilan ta‘minlash standartlarini shakllantirish; zamonaviy loyihalar asosida qurish, ularni zamonaviy o‘quv jihozlari va anjomlari bilan ta‘minlashning normativ-huquqiy asoslari va texnik talablarini takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan. Ushbu qaror bilan “2020-2022 yillarda amalga oshirilishi mo‘ljallangan “Zamonaviy maktab” davlat dasturi”; “Umumta‘lim muassasalarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash bo‘yicha 2020-2022 yillarga mo‘ljallangan manzilli dasturi”; “2020-2022 yillarda xalq ta‘limi muassasalarining mebel, o‘quv-laboratoriya asbob-uskunalari va o‘qitishning texnik vositalari bilan ta‘minlash dasturining asosiy parametrlari” “2020-2022 yillarda qo‘lbola pechlari bilan isitiladigan umumta‘lim muassasalarini zamonaviy isitish tizimi bilan ta‘minlash dasturining asosiy parametrlari” tegishli ilovalarga ko‘ra tasdiqlanishi belgilangan. Zamonaviy ta‘lim muhitini yaratish va muvaffaqiyatli ishlashining eng muhim sharti bu o‘qituvchilar va boshqaruv xodimlarining yangi ta‘lim paradigmasida ishlashga tayyorligi, bu yerda atrof-muhit “uchinchi o‘qituvchi” hisoblanadi va ba‘zi ma‘noda o‘qituvchi bilan ham ahamiyatliroq raqobatlashadi - bu uning o‘qituvchi, moderator, fasilitator, koordinator sifatidagi mavqeini belgilaydi. Endi o‘qituvchi bajaruvchi vazifasida bo‘lmaydi. Shuni inobatga olish lozimki agar o‘qituvchilar va o‘quvchilar ushbu yaratilgan sharoitdan maqsadli ravishda foydalanmasalar, atrof-muhit o‘z-o‘zidan ta‘lim sifatini yaxshilay olmaydi. O‘quv jarayoni har doim birinchi o‘ringa chiqadi, ayniqsa ta‘lim muhitining yangi turiga o‘tishda. Yana bir muhim shart - bu paydo bo‘lgan nuqsonlarni bartaraf etishga emas, balki ularni boshqarish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimi bo‘lishi kerak. Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlar ta‘lim muhitining turli jihatlarini, masalan, fan-fazoviy muhitni, o‘qituvchi va o‘quvchi yoki o‘qituvchining o‘zaro munosabatlari, har xil turdagi o‘quv mashg‘ulotlariga vaqt ajratish, shuningdek xodimlar va ota-onalar uchun yaratilgan sharoitlarni baholashdan iboratdir.

XULOSA

Maktablarni bunday baholash natijalari ta‘lim sohalarini o‘zgartirish va rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlashga yordam beradi. Shunday qilib, ta‘lim muhitining tushunchasini quyidagicha ta‘riflash mumkin: bu o‘quvchilar va o‘qituvchilarni o‘rab turgan, ularga o‘rganish, tarbiyalash va rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratadigan elementlar tizimidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O’quvmetodik qo’llanma. – T.: Sano-standart, 2015. – 208 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdaqi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-son qarori.
3. Tolipov U.K., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005. – 205 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5712-sonli farmoni.
5. Oliygozlarda zamonaviy axborot ta’lim muhiti va ulardan foydalanishning metodik aspektlari. Bustanov X.A., Hasanov U. 6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi matbuot xizmati ma’lumotlari